

2016 yilning 19 sentabrdagi  
AJ “O’zmetkombinat”  
Kuzatuv kengashi qarori bilan  
“TASDIQLANGAN”  
Gerbli muhr

**“O’zmetkombinat” AJ**  
**kuzatuv kengashi yig’ilishlarini so’rov yo’li, shuningdek, video –**  
**konferensiya aloqa rejimida o’tkazish tartibi va hollari**  
**TO’G’RISIDAGI NIZOM**

## **I. UMUMIY QOIDALAR**

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish" haqidagi qonuni, Kuzatuv kengashi haqidagi qoidalar va 31.12.2015 yilgi aksiyadorlik jamiyati faoliyati samarasini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini yaxshilash Qo'mitasi majlisining 9- sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksiga ko'ra, kuzatuv kengashi yig'ilishlarini so'rov yo'li bilan o'tkazish, shuningdek, video – konferensiya aloqa rejimida o'tkazish tartibi va hollarini belgilaydi.

## **II. KUZATUV KENGASHI YIG'ILISHLARINI SO'ROV YO'LI BILAN O'TKAZISH TARTIBI**

2. Ish rejasiga binoan kuzatuv kengashi yig'ilishlari ayrim masalalar bo'yicha so'rov yo'li bilan o'tkazilishi mumkin.
3. Majlislarni so'rov yo'li bilan o'tkazishda, kuzatuv kengashi raisi majlis o'tkazish sanasi, uning kun tartibini belgilaydi va ijroiya organiga yuboradi.
4. Ijroiya organi, kuzatuv kengashi majlisi o'tkazilishidan 10 kun oldin, kun tartibi masalalari bilan bog'liq hujjatlarni tayyorlanishini ta'minlaydi va kuzatuv kengashi a'zolariga yuboradi.
5. Agar kuzatuv kengashi a'zosi majlis o'tkazilish sanasigacha jamiyatga majlisni sirtqi yo'l bilan o'tkazilishiga o'z noroziligini bildirsa, ijroiya organ bu haqida kuzatuv kengashi raisini kechiktirmasdan ogohlantirishi kerak. Bu holda, kuzatuv kengashi raisi kuzatuv kengashining yuzma-yuz o'tkaziladigan majlisini chaqiradi.
6. Jamiyat Kuzatuv kengashi qarorlari so'rov yo'li bilan, kuzatuv kengashi a'zolarining barchasi tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin, quyidagi masalalar bundan mustasno (Kuzatuv kengashi haqidagi qoidalarga mos kelishini tekshirish kerak):

Jamiyatning ustuvor faoliyat yo'nalishlarini belgilash;

Jamiyat ijroiya organi hisobotlarini eshitish, shuningdek, jamiyatning rivojlanish strategiyasiga erishish choralari, ichki audit xizmati va taftish qo'mitasi haqida;

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi ko'rib chiqishi uchun, jamiyatni qayta tashkil qilish yoki tugatish haqida takliflarni kiritish;

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini chaqirish.

7. Jamiyat kuzatuv kengashi qarorlari sirtqi ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li) kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.
8. Kuzatuv kengashi yig'ilishlarini so'rov yo'li bilan o'tkazganda, yig'ilish bayonnomasida so'rov yo'li bilan o'tkazilganligi haqida ko'rsatiladi.

## **III. KUZATUV KENGASHI YIG'ILISHLARINI VIDEO KONFERENSIYA REJIMIDA O'TKAZISH TARTIBI**

9. Texnik vositalar, kuzatuv kengashi a'zolarini identifikatsiya qilish vositalari va boshqa uskunalar mavjud bo'lganida, kuzatuv kengashi yig'ilishlari video konferensiya aloqa rejimida o'tkazilishi mumkin.
10. Yig'ilishni video konferensiya aloqa rejimida o'tkazishda, kuzatuv kengashi raisi yig'ilish o'tkazilish sanasi, uning kun tartibini belgilaydi va ijroiya organga xabar beradi.
11. Kuzatuv kengashi yig'ilishini o'tkazishdan 7 kun oldin, ijroiya organ kun tartibi masalalari bilan bog'liq hujjatlarni tayyorlanishini ta'minlaydi va kuzatuv kengashi a'zolariga yuboradi.
12. Video konferensita aloqa rejimida kuzatuv kengashi akolatlariga kiritilgan barcha masalalar ko'rib chiqilishi mumkin.
13. Kuzatuv kengashi yig'ilishini video konferensiya aloqa rejimida o'tkazishda, bayonnomada majlis so'rov yo'li bilan o'tkazilganligi ko'rsatilgan.

#### **IV. YAKUNIY QOIDALAR**

14. Kuzatuv kengashi yig'ilishi bayonnomasi u o'tkazilganidan keyin 10 kun ichida tuzildai.
15. Ushbu qoida normalariga rioya qilinishini nazorat qilish, kuzatuv kengashi raisi va a'zolari tomonidan amalga oshiriladi.